

“MUSTAFO” QISSASIDAGI MUSTAFO OBRAZINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

*Abdualimov Behzod Xudoyberdi o‘g‘li
Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti
adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti yo‘nalishi magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Murod Muhammad Do‘sning “Mustafo” qissasidagi Mustafo obrazi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Galatepa, Mustafo, Pirimqul Moliya, Usmonali, Ibodulla Maxsum, G‘uchchi chol, Chingiz Aytmatov, Mo‘min chol, Avdiy Kallistratov, qarilik, hayot, o‘lim, tarix, mushohada.

Murod Muhammad Do‘s st qissalarida ko‘pincha o‘ychan, sodda, qishloqi o‘zbek kishilarini tasvirlaydi. Shu jumladan, “Mustafo” qissasida ham shu yo‘ldan boradi. Adib bu qissada ham o‘sha Galatepadagi insonlar haqida so‘z yuritadi. Markaziy qahramon – Mustafo. U yetmish yoshni qarshilagan bo‘lsa ham, qarilikni bo‘yniga olmaydi. Hech kimga og‘irligi tushishini xohlama ydi. Adib uning hayotini tasvirlar ekan, biz juda sokin, bir xildagi hayot tarziga guvoh bo‘lamiz. Lekin asar davomida Mustafoning hayoti har doim ham bir xil kechmaganligi, alg‘ov-dalg‘ovli, suronli yillar uning ham hayotini chetlab o‘tmaganligini anglaymiz. Akasi Nishonboy “bosmachilar” tomonga o‘tib ketganda u “qizillar” tomonda bo‘ldi. Bu qaramaqarshilik tufayli o‘z akasidan ayrildi. Kalxoz qurilishida do‘sti Raim bilan tinmay mehnat qildi. Bu chekkan zahmatlari evaziga kelajakda rohat ko‘raman deb, orzular qildi. Lekin bu orzulari sarobga yuz tutdi. Endi yigit yoshiga yetgan o‘g‘li Bozorboy nemislar bilan bo‘lgan urushdan qaytmadi. Xotinidan ayrildi. Nomiga qora tortilgan qizidan g‘ururi tufayli yuz o‘girishga majbur bo‘ldi. Shuncha qiyinchiliklarni ko‘rgan bo‘lsa ham hech nolimaydi. Birovga bir og‘iz qattiq gapirmaydi. U shunchalar halim insonki, bu yumshoqlik Bolta qassobni darg‘azab qiladi, Ibodilla Maxsumni tutaqtiradi. Umri adog‘iga yetayotganini anglagan Mustafo qabristonga tez-tez otasining qabrini zi yorat qilish uchun boradi. O‘zi uchun, hatto ukalari uchun ham go‘r o‘rnini chamalaydi. Bu fikridan xijolat tortmaydi. “Bari bir o‘lamiz, - deb o‘ylaydi, - Ertami, kechmi, bari bir o‘lamiz-da... Men oldinroq o‘lamani, ulardan oldin keluvdim, oldinroq ketaman...” Yana xayol surishda davom etadi: “Nima bo‘pti, sen o‘lasan – ko‘mishadi, shuncha yotgan odamning hammasi bir vaqtlar tirik bo‘lgan, keyin o‘lgan, keyin ko‘mishgan... Mana, endi tinchgina yotishibdi. Birovni xafa qilganiyam bilinmaydi, xursand qilganiyam bilinmaydi, hamma birday, ayol-u erkak, boy-u kambag‘al... Yaxshilik bilan yomonlik bu dunyoda qoladi. Kim bilsin, balkim, nariga ham o‘tar... Lekin Mustafoga oxiri shu bo‘lib tuyulaveradi. Oxiri shu... Dunyodagi

jadi chuvalgan savdoning uchi manavi do‘ng tepachalarning ostiga kelib kiradi...” Bu o‘ylar sovet tuzumida hayot kechirayotgan sodda qishloqi o‘zbekning falsafiy mushohadalaridir. U umridan rozi, taqdiridan yozg‘irmaydi. Biror narsani o‘zgartirish uchun harakat qilmaydi. Isyonkorlik, o‘z so‘zini o‘tkazishga harakat qilish u uchun begona. Uni solishtirish kerak bo‘lsa, Chingiz Aytmatovning Mo‘min chol va Avdiy Kallistratov obrazlari bilan solishtirish mumkin. Chunki bu obrazlarda ham qahramonimiz kabi halimlik bor. Ularni faqat bu jihat birlashmaydi, ularda, shuningdek, donishmandlarga xos falsafiy mushohada yuritish, qadriyatlarga sodiqlik, ota-bobolar ruhiga hurmat mujassam. Har uchala qahramon o‘lim bilan yuzlashishdan qo‘rqlaydi. Lekin bu dunyoda qoladigan insonlarning to‘g‘ri yo‘ldan ozishidan, tarixini, ota-bobolar an`analarini esdan chiqarishidan qo‘rqadi. Shuning uchun ham Mustafo o‘lim oldida turgan bo‘lsa ham, ukasi Pirimqul Moliyaga ota-bobolaridan qolgan, ko‘mib qo‘yilgan tillalarni qoldirgisi kelmaydi. Chunki boylik hech kimga vafo qilmaydi, kulfat keltirsa, keltiradiki, yaxshilik keltirmaydi. Buni Mustafo anglab yetgan.

Yuqorida uni Chingiz Aytmatovning obrazlariga solshtirdik, lekin u bir xislatda Mo‘min cholning teskarisidir. Bu xislat – odamlar bilan aloqa qilish, ular bilan tezda chiqishib ketish. Chunki Mo‘min chol ovuldagи hech bir ma’rakadan qolmaydi, aytishmasa ham boraveradi, yoshi bir joyga borib qolgan bo‘lsa ham, yoshlardan kam xizmat qilmaydi. Mustafo esa unday emas. Odamlarga kam aralashadi, aytilgan joyga zarurat yuzasidan boradi, unda ham Ibodulla Maxsum va G‘uchchi chollar bilan birgalikda. Lekin, aytib o‘tish kerakki, Mustafo ham, Mo‘min chol ham serharakat inson, ular mehnatdan qochmaydi.

Mustafoning umri poyoniga yetmoqda, lekin uning yana bir xavotiri bor: u o‘tgandan so‘ng uyi vayronaga aylanib, boyqushlar uchun makon bo‘lishidan, bu uyda “chiroq yoquvchisi” qolmasligidan qo‘rqadi. Shuning uchun ham ukasining o‘g‘li Usmonalini merosxo‘r qilmoqchi. Usmonali obrazida ham otasi Pirimqul Moliyaga xos shartakilik bor edi. Lekin Mustafodagi mehribonlik, to‘g‘rilik unga ham yuqqan. Shuning uchun ham u o‘z otasidan ko‘ra Mustafoni yaxshi ko‘radi.

Adib Mustafoni biror joyda maqtamaydi. Uni mehnatkash deb atamaydi. Lekin asarni o‘qigan o‘quvchi voqealardan biladiki, Mustafo tinim nimaligini bilmaydi. Bahorda qovun-tarvuz ekadi, uning po‘chogiga mos ravishda novvos boqadi, tomorqasida dehqonchilik qiladi, egar uchun jabduq tikadi, u tikkon kovush va etiklar atrof qishloqlarda juda mashhur.

Mustafo obrazini tushunish uchun yana bir voqeani ko‘rishimiz kerak. Jiyani Usmonali ko‘p ichib, qimor o‘ynayverishi natijasida Bolta qassobdan anchagina qarz bo‘lib qolgan. Qarzni uzish uchun Mustafo jiyani bilan birgalikda ikkita semiz qo‘yini bozorda sotib, qarzni to‘lashadi va uyga qaytishadi. Bu holatda ikki qahramon ham bir-biriga biron so‘z demaydi. Uyida kampiri Gulsara qo‘y haqida gap boshlasa, Mustafo

gapni boshqa yoqqa buradi, uni oshxonaga ishini qilish uchun jo‘natadi. Usmonali uning achchiq gapirishini, insofga chaqirishini bozordan kelguncha kutdi. Hozir ham kutib o‘tiribdi, lekin Mustafodan sado chiqmaydi. Chunki u jiyanining ko‘ngliga ozor berishdan yoki qilgan yaxshiligi minnatli bo‘lib qolishidan istihola qiladi. U birovning hayotiga aralashishni, ularning taqdiriga dahl qilishni istamaydi. Nimaiki ro‘y bersa, o‘z ixtiyori bilan ro‘y berishini, Usmonalining ham Mustafoning gapi bilan emas, o‘zining fikri bilan bu yo‘ldan qaytishini xohlaydi. Shuning uchun ham u Usmonalining na qimorda qarzdor bo‘lib qolganida, na qabrtoshga deb bergen pulini ichib kelganida qattiq gapirdi. Faqatgina o‘z ixtiyoriga qo‘yib berdi. Asar yakunida uning qilgan ishi to‘g‘ri bo‘lganligini ko‘ramiz.

Asarda Mustafo juda bo‘s, bayov insonday bo‘y ko‘rsatadi. Unga maslahat solganlar bir og‘iz gap ololmaydi. Birovga qattiq gapirib urishgan yoki umrida so’kingan emas. Lekin atrofdagi yaqinlari haqida o‘ylashni, yordam berishni sira kanda qilmaydi. Hatto o‘lim to‘shagida yotgan bo‘lsa ham. U to‘shakda og‘ir ahvolda yotar ekan, Usmonaliga besh yuz so‘m berib, Ibodulla Maxsum bilan birgalikda borib, G‘uchchi cholning otini Salim qaroqchidan sotib olib, o‘ziga qaytarishini tayinlaydi. O‘zi o‘lar holatda yotgan bo‘lsa ham, qadrdoni haqida qayg‘uradi.

Mustafo biror kimga qattiq gapirmaydi. Lekin Bolta qassobning “xotinchalish odamsiz” degan gapi unga og‘ir botadi. O‘zining unaqa emasligini bilish uchun kampirining ovoziga o‘z ovozini solishtirib ko‘radi, odamlar ichida yurganda ham atayin ovozini yo‘g‘onlashtirib so‘zlashishga harakat qiladi. Tabiiyki, uning mayin ovozining eshitgan do‘satlari bundan ajablanishadi. Dardini G‘uchchi cholga aytib, undan yordam kutadi. G‘uchchi chol esa unaqa emasligini isbotlash uchun Ibodilla Maxsumni boshlab keladi. Ikkilasi bir bo‘lib, Mustafoning ko‘nglini ko‘tarishadi, Bolta qassobni esa yomonlashadi. Bu holat bir tomondan kulgili va yosh bolalarning ishiday tuyuladi, lekin bu yerda insonning ko‘ngli qariganda nozik bo‘lib, kimdandir mehr kutishini ko‘rishimiz, uchala cholning do‘sligi qanchalar mustahkamligini bu va yuqoridagi ot voqeasidan anglashimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Mustafo obrazida bolalarcha soddalik va qarilarga xos donishmandlik, yuvosh tabiatlilik, qat’iyatsizlik, kezi kelganda esa o‘jarlik va qattiqko‘llik namoyon bo‘ladi. Unda tipik qishloq odami xarakteri aks etgan. O‘ziga halollik va to‘g‘rilikni dasturilamal qilib olgan mehnatkash, oriyatli o‘zbek kishisining tasvirini Mustafoda ko‘ramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Adabiyot nazariyasi. 2 томлик. – Toshkent: Fan, 1978, 1979.
2. Adabiy tur va janrlar. – Toshkent: Fan, 1989.
3. Do‘s M.M. Dashtu dalalarda. Qissalar, hikoyalar. – Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1989.

4. Olimov M. Badiiy asar pafosi estetik ideal ifodasi sifatida. – Toshkent: O‘zbek tili va adabiyoti. 1994. № 1.
5. Olimov M. Fojiaviy pafosning ayrim o‘ziga xosliklari. – Toshkent: O‘zbek tili va adabiyoti. 2005. № 3.
6. Jo‘rayev T. Ong oqimi va tasviriylilik. – Toshkent: Fan, 1994.